O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU.
# ILMIY
# XABARLAR-

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

# НАУЧНЫЙ
# ВЕСТНИК.
# ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg‘ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» “Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo‘limida tayyorlandi.



**Tahrir hay’ati**

**Bosh muharrir** SHERMUHAMMADOV B.SH.
**Mas’ul muharrir** ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O‘zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O‘zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S.( O‘zbekiston)
JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A’ZAMOV A. (O‘zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya
BAXODIRXONOV K. (O‘zbekiston)
G‘ULOMOV S.S. (O‘zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog‘iston)
KARIMOV N.F. (O‘zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O‘zbekiston)

**Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O‘zbekiston)
OTAJONOV S. (O‘zbekiston)
O‘RINOV A.Q. (O‘zbekiston)
KARIMOV E. (O‘zbekiston)
RASULOV R. (O‘zbekiston)
ONARQULOV K. (O‘zbekiston)
YULDASHEV G. (O‘zbekiston)
XOMIDOV G‘. (O‘zbekiston)
DADAYEV S. (O‘zbekiston)
ASQAROV I. (O‘zbekiston)
IBRAGIMOV A.(O‘zbekiston)
ISAG‘ALIYEV M. (O‘zbekiston)
TURDALIYEV A. (O‘zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O‘zbekiston)
YULDASHOV A. (O‘zbekiston)
XOLIQOV S. (O‘zbekiston)
MO‘MINOV S. (O‘zbekiston)
MAMAJONOV A. (O‘zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O‘zbekiston)
SHUKUROV R. (O‘zbekiston)
YULDASHEVA D. (O‘zbekiston)
JO‘RAYEV X. (O‘zbekiston)
KASIMOV A. (O‘zbekiston)
SABIRDINOV A. (O‘zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O‘zbekiston)
G‘OFUROV A. (O‘zbekiston)
ADHAMOV M. (O‘zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O‘zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O‘zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O‘zbekiston)
USMONOV B. (O‘zbekiston)
ASHIROV A. (O‘zbekiston)
MAMATOV M. (O‘zbekiston)
SIDDIQOV I. (O‘zbekiston)
XAKIMOV N. (O‘zbekiston)
BARATOV M. (O‘zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.



**Tahririyat manzili:**
150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog‘oz bichimi: - 60×84 1/8
Bosma tabog‘i:
Ofset bosma: Ofset qog‘ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №
FarDU nusxa ko‘paytirish bo‘limida chop etildi.
**Manzil:** 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy.

**Farg‘ona,**
**2022.**

# MUNDARIJA

## FANIMIZ FIDOILARI

**S.MAHMUDOVA**
**“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir”** ............................................................6


## PEDAGOGIKA

**X.Kadirov, B.Xamdamov**
Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati .........................................8
**L.Yo‘ldosheva**
Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish ........................................................................................................13
**M.Alimjanova**
Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari ...................................................................................17
**B.Xaydarov**
Odam tana tuzilishini tahlil qilish.......................................................................................................23
**G.Absalamova**
Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiyasi tushunchasi.........................................................28
**F.Mirzayeva**
Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi..................................................................32


## IQTISODIYOT

**T.Xaydarov, B.Karimov**
Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi ....................................................................................................36


## FALSAFA, SIYOSAT

**N.Hakimov, D.Amridinova**
Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari...........................................................................................40
**I.Raximov**
O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari ..........................................................................48
**R.Isamutdinov**
“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.................................................................................54
**S.Xoliqov**
O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari ....................................................................................................57


## ТАРИХ

**M.Xurramov**
1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari ....................................................................................................................61
**R.Arslonzoda**
Istiqlol yillarida O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi .......................................................69
**I.G‘ulomov, Z.Kasimova**
O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish ...........................................................................................76
**G‘.Haydarov**
Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi ................................................................................................................83
**G.Dadamirzayeva**
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati .............................................88
**A.Abduvali**
Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.......................................93
**N.Komilov**
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari...............................................................................................98
**M.Darmonova**
“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni..........................................................................................................103
**L.Sokolova**
Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari ..................................................................107
**O.Zaripov**
“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi ...........................................................113

UDK: 621.313.333 DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss2/a7

# TADBIRKORLIK MAHALLADAN BOSHLANADI

# ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО НАЧИНАЕТСЯ С МАХАЛЛИ

# ENTREPRENEURSHIP BEGINS IN MAKHALLAS

**Xaydarov Turdali Maksudaliyevich[1], Karimov Baxtiyor[2]**

[1]**Xaydarov Turdali Maksudaliyevich** − *QDPI, iqtisod fanlari doktori, professor.*
[2]**Karimov Baxtiyor** − *tadqiqotchi*

**_Annotatsiya_**

*Tadbirkorlikni rivojlantirish milliy iqtisodiyotni yuksaltirish, bozor tamoyillari asosida munosabatlarni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada tadbirkorlikni mahallada rivojlantirish yo‘llariga e’tibor qaratilgan. Natijada ishsiz aholining ish bilan ta’minlanishi, kichik biznesni rivojlantirish muammolari taxlil qilingan*

**_Аннотация_**

*Развитие предпринимательства, национальной экономики на основе рыночных отношений является одним из основных направлений политики гоударства. В данной статье особое внимание уделяется способам развития предпринимательства в махаллях. В результате ожидается обеспечение работой безработного слоя населения и развитие малого бизнеса.*

**_Abstract_**

*The development of entrepreneurship and national economics on the basis of the market relations is one of the leading policies of the state. The given article touches upon the issues of the development of the entrepreneurship in makhallas. In the result of it, the unemployed support and minor business development are in future perspectives.*

***Kalit so‘zlar:*** *tadbirkorlik, maxalla, kichik biznes, davlat siyosati, milliy iqtisodiyot, soha.*

***Ключевые слова:*** *предпринимательство, махалла, малый бизнес, политика государства, национальная экономика, отрасль.*

***Keywords:*** *entrepreneurship, makhalla, minor business, state policy, national economics, branch.*

## KIRISH

Respublikamizning milliy-iqtisodiyotini rivojlantirish chuqurlashtirish, bozor tamoyillari asosida munosabatlarni takomillashtirish jarayonida davlat mulkini yanada o‘sib kelayotgan yangi yosh tadbirkorlik sub’yektlariga transpornatsiyalash va mulkiy munosabatlarni ko‘pukladlilik usulida milliy iqtisodiyotni Yangi O‘zbekiston sharoitiga moslashgan holda yangicha shakllantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi, “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni va 2022-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlariga muvofiq 2022-yil 1-yanvar sanasidan mahallalarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, aholi bandiligini ta’minlab, daromadga ega bo‘lish va “temir”, “ayollar”, va “Yoshlar” daftaridagi ishsiz turganlarni hamda kambag‘allikni qisqartirib borish, masalalari bo‘yicha har bir mahallalar bo‘yicha hokim yordamchilari o‘z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolada muallif O‘zbekiston respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha qator gazeta maqolalariga, O‘zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlariga yondashgan va ilmiy xulosalarini bergan. Maqolada tasviriy va analitik metodlardan foydalanildi.

## NATIJA VA UNING MUXOKAMASI

- Ma’lumki, 2021-yil davomida tuman va shaharlarda aholi xatlovlaridan to‘liq o‘tkazilib, ishga layoqatli fuqarolar toifasidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga layoqatlilarini ham xatlovdan o‘tkazildi. Ulardan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish ishtiyoqida va istagini bildirgan fuqarolar ro‘yxati shakillantirilib, xunarmandchilik, tomarqachilik, parandachilik va quyonchilikni rivojlantirish bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradiganlar ortib bormoqda.

- Farg‘ona viloyatida 2022-yil boshida 3 mln. 820 ming nafardan ziyod aholi yashaydi. Ulardan 42 ming 22 tasi har xil turdagi yo‘nalishlarda kichik tadbirkorlik subyektlari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularda band bo‘lgan aholi soni 143 mingdan ortiqni tashkil etadi.

- Taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik subyektlarini yanada rivojlantirish vazifasi belgilanib, 2022 yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron registrga kiritilayotgani hamda takrorlanuvchi va oʻz ahamiyatini yoʻqotgan majburiy talablar qayta koʻrib chiqilib yagona reyestr 2025 yil yanvardan boshlab toʻliq ishga tushirish belgilab qoʻyilgan.

- Viloyatda tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samarali va ijobiy olib borilganlar tajribasi "Prezidentimiz taʼkidlaganidek, "Fargʻona tajribasi" shakillangan. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonida hal qilinishi mumkun boʻlgan muhim muammolarning koʻproq hissasiga oʻz paytida yechimi topmoqda. Shuning uchun boʻlsa kerak, oʻtgan beshlikda-yaʼni xarakatlar strategiyasi sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyat sohasini izchil rivojlantirish aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish hamda ishbilarmonlarni har tamonlama qoʻllab-quvvatlash davlat siyosati darajsiga koʻtarildi. Uning qanday samara berilayotginini va "inson qadrini ulugʻlash va faol mahalla yili"da tadbirkorlik subyektlarini barcha turlarini, xususan, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish yoʻnalishidagilarini ham yanada takomillashtirishni taqazo etadi. Oʻtgan davr davomida viloyatda aholining faol toifalarini ishbilarmonlikka va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga va ezgu maqsadga jalb qilishda muayyan tadbirlar amalga oshirildi. Viloyatdagi barcha maxallalarda, uy xoʻjaliklarida, taʼlim-tarbiya va sogʻliqni saqlash muassasalarida aholini jozibador tadbirkorlikka yoʻnaltirish, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha muayyan ijobiy yoʻnalishlar boʻyicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi, aholi orasida qator xuquqiy, moliyaviy, iqtisodiy-tashkiliy va maʼnaviy-maʼrifiy asoslarni tushuntirishlar olib borildi. Bu tadbirlarga maxsus mutaxassislar, yuristlar, iqtisodchilar va tajribali tadbirkorlar, shu jumladan, konfrensiyalar, seminarlar, treninglar alohida suhbatlar va murojaatchilarni qabul qilish kabilar amalga oshirildi.

- Natijada soʻngi toʻrt yil davomida Viloyatda kichik biznes tadbirkorlik subyektlari soni 4,8 barovar koʻpaydi. Ayniqsa, aniq aytadigan boʻlsak, 24 ming 186 tadan 42 ming 200 taga oshdi, bashorat qilib belgilangan chamaga nisbatan tadbirkorlik subyektlari soni 18 mingtani tashkil qildi.

- Shu munosabat bilan Prezidentimiz rahbarligida respublika tadbirlari va ishbilarmonlari bilan oʻtkazilgan uchrashuvda va 2020-yil 8-yanvar kuni uning raisligida boʻlib oʻtgan vidioselektor majlisida Davlat budjeti parametrlarini ijro etish va xududlarda tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish boʻyicha 2020 yildagi 11 ta ustuvor vazifa boʻyicha berilgan topshiriqlari yuzasidan "Qashqadaryo tajribasi" asosida Fargʻona viloyatida bir qator ezgu ishlar roʻyobga chiqarilgani ham taʼkidlab oʻtilgani ham zarurdir. 2020 yilda koronavirus pandemiya taʼsirida kichik biznes, mikrofirmalari va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga taʼsiri yumshatilishi natijasida qisman sustliklar boʻlishiga qaramasdan, 2020 yil oxiridan 2021 yil davomida kichik biznes, mikrofirma va xususiy tadbirkorlik subyektlariga Davlatimiz rahbariyati va viloyat xokimligining eʼtibor, moddiy yordamlar va imtiyozlar hamberildi va rivojlanish sharoiti yaratildi.

- Muhimi, ana shu saʼy harakatlar natijasida 2021-yilda va 2022-yilning birinchi choragida tadbirkorlik subyektlarini soni yuksalib, viloyat yalpi xududiy maxsulotdagi ulushi oshib bordi. 2018 yildagi 24,2 foizdan 2021-yilda 60,1 foizga oʻsgan boʻlsa, tadbirkorlik subyektlari soni 177,3 foizga koʻpaydi.

- Viloyatimiz xududida biznes muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes, mikro firma va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy eʼtibor qaratilib, viloyat, shahar va tumanlarda tashkil etilgan "Tadbirkorlik uylari"da xaftaning dushanba kuni tadbirkorlar qabulini oʻtkazish yoʻlga qoʻyildi. Viloyat sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni 2 barobarga oshirish maqsadida xokimitni moʻljallangan rejasini ijrosi natijasida 2022-yilda 8 ming 542 ta yangi kichik bizmen, mikrofirma va xususiy tadbirkorlik subyektlari tashkil etilib, ularning umumiy soni oshmoqda, ularda 21 ming 600 ta ish oʻrinlari yaratildi. 2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 145 ming 908 nafar fuqorolarni doimiy va 238 ming 342 nafar fuqarolarni takroriy ekin maydonlarida ekin ekishga yer uchastkalari ajratib berish yoʻli bilan mavsumiyishlarda tadbirkorlik faoliyati bilan taʼminlandi; ishlash faoliyatini toʻxtatgan 1 ming 670 ta yuridik shaxsdan-tadbirkordan 329 tasi oʻz faoliyati tiklandi; halqaro moliya tashkilotlari kredit mablagʻlari hisobidan 1 ming 374 ta loyiha moliyalashtirilib, 154,8 million AQSH dollorlik kredit mablagʻlari yoʻnaltirildi; viloyat boʻyicha 3 ming 224 ta tadbirkorlik subyektlariga 4,6 trilliondan ziyod kreditlar ajratildi; Ularda ish bilan band aholi soni 145 nafardan ortiqni tashkil etadi.

- Taʼkidlab oʻtish joizki, viloyatdagi saʼy-xarakatlar tufayli 2021-yilda yuqoridagilarga mos tarzda aholining bandligini taʼminlash, oilaviy tadbirkorlikni yangi Oʻzbekiston talabiga mos rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy dasturlar doirasida 36 ming oila va tadbirkorlik subyektlariga 830 milliondan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi.

- Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil fevraldagi farmoniga binoan “har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida ishsiz aholini ish bilan bandligini ta’minlash maqsadida 29 ming 260 fuqaro va oilaviy tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 701,5 milliard so‘mli imtiyozli kreditlar ajratib berildi. Viloyat rahbariyati tomonidan yuqoridagilardan tashqari, tadbirkorlar murojaatlari asosida ishlash masalasi doirasida ham doimiy e’tibor berilib kelishi natijasida 2021-yil davomida viloyat, shaxar va tumanlar xududlaridagi “tadbirkorlik subyektlari uyi”ga jami 6 mingdan ziyod tadbirkorlik subyektlaridan turli masalalarda murojaatlar qabul qilingan edi. Ulardan 4 mingdan ortig‘i ijobiy hal etilgan, qolganlari esa tegishli joylarga ijro etish maqsadida va o‘rganish uchun yuborildi.

- Mahallabay va fuqorobay o‘rganish jarayonida viloyatda tadbirkorlar murojaatlar sohalar kesmida tanqidiy tahlil qilinganida ma’lum bo‘ldiki, tadbirkorlik subyektlarining 2 ming 221 ta murojaatining 52 foizi bank, moliya va kredit masalalari ijobiy hal etilgan, 48 foizi esa murojaatchilarga tushuntirish va yangi yo‘nalishlarga o‘tishlari orqali ijobiy yechimi topildi.

- Viloyatda yer maydonlari va qurilish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining murojaatlari sohasidagi masalalar bo‘yicha kelgan 1 ming 341 ta talablarning 36 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy tomoni hal qilinib, 64 foizi tushuntirish berish yo‘li bilan yechimi topilgan. Tadbirkorlik subyektlarining axborot-kommunikatsiya va muxandislik sohasidagi masalalariga doir 604 murojaatlaridan 57 foizi hal etilgan, qolgan 43 foizi esa sohani chuqirroq tushuntirish bo‘yicha tahliliy javoblar orqali yechim topilgan.

- Tadbirkorlik-bu uzliksiz va doimiy xarakat jarayonidir. “Izlagan imkon topadi” degandek qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan tadbirkor 5 sotix issiqxonadan 45 million so‘m sof daromad topib, ishbilarmonlikdan faravonlikda alohida o‘rni bor.Hozirgi sharoitda qishloqdagi imkoniyatlardan oqilona foydalanadigan Oltariqlik, Qo‘shtepalik va Quvalik dehqonlar ham o‘z tomorqasini daromad manbaiga aylantirib borayotgan tadbirkorlar ko‘payib bormoqda. Tadbirkorlikning turlari va yo‘nalishlarida yangidan yangi tomonlari kashf etilmoqda. Masalan Uchko‘prik tumani xududida ham qishloq sharoitida limonchilik, asalarichilik, issiqxona yo‘nalishlaridan tashqari so‘ngi yillarda “Boboshbek”, “Bekmurod”, “Zig‘ir”, “Poloxon”, “Yakkamulla” kabi mahallalar fuqorolar yig‘inidagi 500 dan ziyod xonadonlarda tikuvchilik va tirikataj maxsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan oilaviy korxonalar faoliyatini boshlab, maxsulotlarni “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” maqomini olgan. Tuman qishloq ayollari azaldan nomi chiqqan mohir chevar bo‘lib, deyarli har bir oila bu muhim chevarchilik mahorati va tajribasi bilan band bo‘lib, bu guruh oilaviy tikuvchilik sexiga Irodaxon Sodiqova 2014 yili 2 ta tikuv mashinasi bilan ishboshlagan va rahbarlik qilib kelgan. Prezidentimizning oilaviy tadbirkorlik Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonidagi Farmonidan ruhlanib, tumandagi 5-6 ta mahalla fuqorolar yig‘ilishidagi chevarchilik kasbini bilganlarni va urganishga qiziqib intilayotganlarni Oilaviy korxonaga jalb qiladi va “temir daftar”dagi 30 nafar xotin-qizlarni ish bilan band etadi. Korxona har oyida 100 ming dona bolalar uchun 10 turdagi trikataj maxsulotlari ishlab chiqaradi. Ular maxsulotlarni ichki bozordan tashqari Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiyaga eksport qilmoqda. 2021-yilning yakuniga ko‘ra qo‘shni mamlakatlarga 100 ming dollardan ziyod tikuvchilik va tirikotaj maxsulotlari sotildi. Yangi yilda Yangi O‘zbekiston tamg‘asi bilan maxsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari Tumandagi 53 maxalla fuqorolar yig‘ilishidagi 1856 ta xonadonda trikotaj maxsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi va ulardagi tikuv sexlarida 9 ming nafardan ortiq xotin-qizlar bandliligi ta’minlangan.

- Tadbirkorlik subyektlari rivojini yanada ko‘plab muammolarining yechimini topishda yangi ta’sis etilgan xokim yordamchilari maxalla fuqorolar yig‘inlari raisiga qanot, aholiga iqtisodiy ko‘makchi, kambag‘allik bilan kurashda asosiy figuralardan biri bo‘lib, ular aholining qaysi toifasiga qanday ko‘maklashib, tadbirkorlik subyektlari toifasini ixtidorlarini tashabuskorini aniqlab maxalla ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo‘shadilar.

- Xozirgi paytda xokim yordamchilari mahalladagi ishsiz aholini ish bilan ta’minlash, ularga doimiy daromad manbalarini yaratishga yaqindan ko‘maklashish uchun ustuvor tarzda maxalladagi muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda faoliyatini olib boradi. Respublika va viloyat vakillari bilan birgalikda o‘ziga biriktirilgan maxallani rivoji bo‘yicha 2022-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqib, uning ijrosini ta’minlaydi. Mahalladagi ajratilgan yer, suv va boshqa mol-mulk resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitorinni amaga oshiradi. Bajarilgan ishlar samaradorligi bo‘yicha tuman (shahar) xokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari bilan birgalikda doimiy ravishda hokimga xisobot berib boradi.

- Hokim yordamchilari o‘z vazifalarini ochiq va kelishilgan tartibda amalga oshirishda foydalaniladigan moliyaviy insturimentlarning 2022-yil uchun mablag‘lar Respublika hukumati

tomonidan belgilangan. Ular quydagilarda kredit hamda subsidiya mablag‘lari ajratilishi bo‘yicha mas’ul idora va tashkilotga o‘z tavsiyasini yozma ravishda beradi. Jumladan, xususan, oilaviy tadbirkorlikni, kichik biznesni, mikrofirmani, xususiy tadbirkorlikni, qo‘shma korxonalar tashkil etish kabilar bilan bir vaqt, aholining bandligini ta’minlash, ularning o‘zini o‘zi band qilish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun ajratiladigan mablag‘lar 1218 millard so‘mdan foydalandilar.

- Shu bilan birga shu o‘rinda aholida qayd etish kerakki, hokim yordamchisi har bir loyixaning natijadorligi va maqsadga muvofiqligini chuqur va atroflicha o‘rgangan holda kreditlar va subsidiyalar ajratilishi ko‘zda tutilishi lozim. Demak, subsidiya, ya’ni qaytarilmaydigan mablag‘lar ajratish yuzasidan tavsiyalar quydagilardir:

- Tadbirkorlik va o‘zini-o‘zi band qilish faoliyatini boshlovchi bo‘lgan ishsiz, shu jumladan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqorolarga faoliyatini boshlash uchun kerak bo‘lgan asbob-uskuna, mehnat qurollari va boshqa zaruriy vositalarni xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha;
- Tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqorolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazgandan so‘ng dastlabki uch oy mobaynida olingan bino va inshootning ijara to‘lovi uchun;
- Xunarmandlarning “xunarmand” uyushmasiga a’zolik badali xarajatlari uchun;
- Usta-shogird an’analari asosida yoshlarga xunar o‘rgatayotgan kulollarga shogirdlar tayyorlashi, zarur xom ashyo sotib olish va shogirdlarni ish xaqi bilan ta’minlash uchun;
- Tadbirkorlik faoliyatini yoki o‘zini-o‘zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan yoshlarga asbob-uskuna yoki mexnat qurollari (mato kultivatorlar, o‘t o‘rish yig‘ishtirish mashinalari, perforatorlar, payvandlash aparatlari, o‘simliklarga ishlov berish qurilmalari, duradgorlik, chilangarlik, qurilish uskunalari, kompyuter jamlanmalari va boshqalar)ni xarid qilish uchun boshlang‘ich xisoblash miqdorining 40 barobarigacha miqdorda Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq beriladi;
- Nodavlat kasb-xunarga o‘qitish markazlariga “Yoshlar dasturi”ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-xunar o‘rgatish uchun sarflangan xarajatlarning 75 foizigacha qismini “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari xisobidan qoplab berish.

## XULOSA

Xulosa qilib aytilganda Farg‘ona viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muammolarni yechim topishda tadbirkorlik subyektlarini jamiyatni barcha soha va tarmoqlarida, sanoatda, qurilishda, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik tarmoqlarida umumiy ovqatlanish, savdo, moliya, ta’lim-tarbiya, sog‘likni saqlash, ilmiy-tadqiqotlar sohalarida barcha sohayu-tarmoqlarda tadbirkorlikning yangi turlarini tashkillash va rivojlantirish taraqqiyot strategiyasini maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda muhim o‘sish poydevoriga katta imkoniyat mavjud.

### ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni 2022 yil 28-yanvar.
2. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. –Toshkent. 2022 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrdagi “Maxallada rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Farg‘ona viloyati 2021 yilda “Farg‘ona xaqiqati” 2022 yil. 7-yanvar.